

INNOVATIONS IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 2



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
2-son
iyun, 2025

June 2025
Volume 3
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич – i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич – i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исмолиддинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich – t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich – i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich – i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazliddin Baxadirovich- i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

June 2025

Volume 3

Number 2

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

Aholi turmush darajasi: ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tasniflarining nazariy asoslari

Samiyeva Gulnoza Toxirovna, Abdiyeva Dilshoda Oybek qizi

Уровень жизни населения: теоретические основы социально-экономической сущности и классификации

Самиева Гулноза Тохировна, Абдиева Дилшода Ойбек кизи

Living standards of the population: theoretical basis of social and economic essence and classification

Samieva Gulnoza Tokhirovna, Abdieva Dilshoda Oybek kizi

Received: May 2, 2025 Revised: May 6, 2025 ■ Accepted: May 9, 2025 ■ Published Online: June 1, 2025

- **Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida aholi turmush darajasi va turmush sifatining oshishi, aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushining tobora ortib borayotgani, aholining xizmat ko'rsatish sohasidan foydalanish jarayonining ortishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasidagi ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning nazariy asoslari, iqtisodiy taraqqiyot muammolari va ularning yechimlari, aholi farovonligi va turmush darajasi bilan bog'liq nazariyalari bayon etilgan bo'lib, aholining muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, aholi daromadlari va taqsimlanishi haqidagi fikrlar keltirilgan. Maqolada farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari va siyosiy hokimiyatga bog'liqligi, umuman olganda turmush darajasi va sifati kabi masalalarga bag'ishlangan. Shuningdek, ushbu maqolada aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishning eng muhim jihatlari iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi hisoblangan insonning asosiy sifat xususiyatlarini baholash ham batafsil bayon etilgan.
- **Kalit so'zlar:** aholi farovonligi, aholi turmush tarzi, kambag'allik, qashshoqlik, moddiy farovonlik, aholi daromadlari.
- **Аннотация.** В результате проводимых в Республике Узбекистан последовательных реформ, повышения уровня и качества жизни населения, увеличения доли доходов от предпринимательской деятельности в доходах населения, расширения использования населением услуг сферы услуг приводят к позитивным изменениям в социально-экономическом развитии. В статье изложены теоретические основы социально-экономического развития, проблемы экономического развития и пути их решения, теории, связанные с благосостоянием и уровнем жизни населения, изложены представления о составе и уровне постоянно меняющихся потребностей населения в различных благах, возможностях удовлетворения потребностей, доходах и распределении населения. В статье также рассматриваются такие вопросы, как уровень благосостояния, масштабы эффективности в производственной и сервисной сферах, уровень научно-технического развития, культурный и образовательный уровень населения, национальные особенности и зависимость от политической власти, общий уровень и качество жизни. В статье также подробно изложены

важнейшие аспекты изучения социально-экономической жизни населения, а именно оценка основных качественных характеристик человека, являющегося участником экономической деятельности.

- **Ключевые слова:** благосостояние населения, образ жизни населения, бедность, нищета, материальное благополучие, доходы населения.
- **Abstract.** As a result of the consistent reforms carried out in the Republic of Uzbekistan, the increase in the standard and quality of life of the population, the increase in the share of income from entrepreneurial activity in the income of the population, the expansion of the use of services by the population in the service sector lead to positive changes in socio-economic development. The article presents the theoretical foundations of socio-economic development, the problems of economic development and ways to solve them, theories related to the welfare and standard of living of the population, presents ideas about the composition and level of constantly changing needs of the population for various goods, the possibilities of satisfying needs, income and distribution of the population. The article also considers such issues as the level of welfare, the scale of efficiency in the production and service spheres, the level of scientific and technological development, the cultural and educational level of the population, national characteristics and dependence on political power, the general level and quality of life. The article also describes in detail the most important aspects of the study of the socio-economic life of the population, namely, the assessment of the main qualitative characteristics of a person who is a participant in economic activity.
- **Key words:** welfare of the population, lifestyle of the population, poverty, destitution, material well-being, income of the population.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mazmuni, omillari, o'lchamlari va muammolarini o'rganish davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Ana shu kabi muhim masalalarni samarali hal qilish ko'p jihatdan kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sirlarini, ularning talab va xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsad va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash bo'yicha tanlangan strategiyalarni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholining moddiy farovonligini yuksaltirishga erishmoqda.

Xususan, "Aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va ishsiz fuqarolarni davlat hisobidan malakali kasb-hunarga o'qitish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, ehtiyojmand aholini manzilli qo'llab-quvvatlash orqali 2026 yilgacha kambag'allikni ikki barobar qisqartirish, ijtimoiy himoya sohasida boshqaruv tizimini isloh qilish, ijtimoiy xizmatlarning sifatini yaxshilash va ko'lamini kengaytirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo muntazam avtomobil, temir yo'l va havo qatnovini yaxshilash bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirish, umuman olganda uy-joy masalasini hal etish, aholiga qulay yashash sharoitlarini yaratish..." [1] kabilar O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Sh.Mirziyoyevning Yangi Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda aholi turmush darajasida to'ldiruvchi komponent sifatida ijtimoiy nafaqalarni hisobga oladigan bo'lsak, faqatgina oxirgi 2 yil ichida ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 1,3 barobarga ko'paydi, nafaqalar miqdori 2 barobarga oshdi. Lekin kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammo to'liq yechilmaydi. Aholining turmush darajasini oshirishda uning sifatini ham oshirish, aholi salomatligi, ta'lim olishi, uy-joy bilan ta'minlash, maishiy xizmatdan foydalanish kabi asosiy masalalarni hal etish zarur.

SH.Mirziyoyev tomonidan Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan birga aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. Bunda xalqaro me'yorlar asosida chuqur va har tomonlama kompleks izlanishlar olib borilib, eng avvalo "kambag'allik" tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash uslublarini qamrab olgan yangi metodologiya yaratish lozimligi ta'kidlab o'tildi [2].

"Izchil olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Keyingi yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 %dan 58,6 %ga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi yuqori ko'rsatkichlardan biridir" [3], - deb ta'kidlanishi hozirgi kunda mamlakatimizni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirish masalalarining qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni nazariy o'rganishdan maqsad - iqtisodiy taraqqiyot muammolari va ularning yechimlari bilan tanishish, iqtisodiy o'sish nazariyalarini o'rganishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti Lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan. Aholining turmush darajasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq masalalar bir qator mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar, tadqiqotchi va amaliyotchilar tomonidan tegishli o'rganilgan. Xususan, rossiyalik va MDH mamlakatlari olimlaridan Abakumova N.N., Podovalova R.Y., Averin A.N., Agapov S.A., Romanov YE.Y., Dagbayeva S.D., Jerebin V.M., Romanov A.N., Kukushina V.S., Podovalova R.Y., I.Aliyev, N.A.Gorelov, Savchenko P.V., Y.P.Kokina, N.A.Volgina, N.A.Smironova, V.M.Rutgayzera, S.P.Shpilko, Surinov A.YE., Rimashevskaya N.M., Simbalist A.B., Bachurin A., Bobkov B.N. larning tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Xususan, o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar qatorida Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova, SH.R.Xolmo'minov, R.F.Djumanova, N.M.Ibragimova, M.Z.Muxitdinova, B.Pardayeva, K.S.Saidov, P.Z.Xashimov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida kambag'allikka oid masalalar alohida muammo sifatida chuqur o'rganishga harakat qilingan.

Ushbu tadqiqotchilar olib borgan ilmiy ishlari aholi turmush darajasi va sifati, kambag'allik bilan bog'liq masalalarni kengroq yoritishga xizmat qilgan, shuningdek aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq ijtimoiy muammolarini o'rganish borasidagi ilmiy nazariyalarni yanada boyitishga erishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik va ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kishilar hayot faoliyati uchun zarur ne'matlar to'plami mehnat sharoiti, ta'lim, sog'liqni saqlash, oziq-ovqat va uy-joy sifati kabi xilma-xil ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Kishilar ehtiyojlarini qondirish darajasi jamiyat a'zolarining alohida olgan va oilaviy daromadlari darajasiga bog'liq. Turmush darajasini mamlakat darajasida (butun aholi uchun) va tabaqalashgan mikroderajada (aholining alohida guruhi uchun) qarab

chiqish mumkin. Birinchi yondashuv turli mamlakatlarda aholining turmush darajasini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi bo'yicha aniqlab, qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi [4].

Aholi guruhlari bo'yicha daromadlar taqsimlanishi dinamikasini taqqoslash iste'molchi budjeti asosida amalga oshiriladi. Iste'molchi budjetlarining bir qator turlari mavjud bo'ladi: o'rtacha oila budjeti, yuqori darajada ta'minlangan budjet, minimal darajada moddiy ta'minlanganlar budjeti, nafaqaxorlar va aholi boshqa ijtimoiy guruhlari budjeti shular jumlasidandir [5].

Farovonlikning eng quyi chegarasini oila daromadining shunday chegarasi bilan belgilash mumkinki, daromadning bundan past darajasida ishchi kuchini takror hosil qilishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu daraja moddiy ta'minlanganlik minimumi yoki kun kechirish darajasi (qashshoqlikning boshlanishi) sifatida chiqadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'rtacha daromad "o'rtacha sinf" deb ataladigan tabaqalar daromadlari bo'yicha aniqlanadi. Bunday guruh iste'mol savati to'plamiga uy, avtomashina, dala hovli, zamonaviy uy jihozlari, sayr qilish va bolalarini o'qitish imkoniyati, qimmatli qog'ozlar va zebu ziynat buyumlari kiradi [6].

Bozor iqtisodiyoti aholining yuqori ta'minlangan yoki "boy" qatlamining mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi.

Turmush darajasi kishilarning turmush tarzi bilan uzviy bog'liq. Turmush tarzi – bu kishilar (jamiyat, ijtimoiy qatlam, shaxs)ning milliy va jahon hamjamiyatidagi hayot faoliyati turi hamda usullarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi, ya'ni:

- mehnat, uni tashkil etishning ijtimoiy shakllari;
- turmush va bo'sh vaqtdan foydalanish shakllari;
- siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish;
- moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish shakllari;
- kishilarning kundalik hayotdagi xulq-atvori me'yorlari va qoidalari

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darajasi kontseptsiyasi bilan uzviy bog'liq.

"Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir [7].

Bizning fikrimizcha, aholi farovonligi deganda, aholining turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik, shu bilan birgalikda ularni iste'mol qilish darajasi ham tushuniladi. Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "xalq farovonligi" va boshqa shu kabi turli xil

tushunchalar qo'llaniladi.

O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy-ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir. Aholining farovonligi bir tomondan, aholining muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari va siyosiy hokimiyatga bog'liq [8].

Farovonlik darajasi aholi hayot faoliyatining ma'lum bir qirasi to'g'risida tasavvur beradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan belgilanadi. Aholining farovonlik darajasi to'g'risida batafsil ma'lumotga ega bo'lish uchun aholi daromadlari va ehtiyojlari, iste'mol darajasi va tarkibi, uy-joy, mol-mulk, madaniy-maishiy buyumlar va boshqa imkoniyatlar bilan ta'minlanganlik darajasini chuqur o'rganish lozim.

Aholining farovonlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darajasi konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq. Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'allik, mutlaq va nisbiy kambag'allik ko'rsatkichlari keng qo'llaniladi.

Minimal iste'mol budjeti – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati hisoblanadi.

Kambag'allik ko'rsatkichi aholining farovonlik darajasini baholash uchun foydalaniladigan mezonlardan biridir. Jahon amaliyotida kambag'allik darajasini ta'riflashga yondoshishda uchta asosiy konsepsiya qo'llaniladi. Mutlaq kambag'allik konsepsiyasi shaxs yoki oilona minimal hayotiy ehtiyojlarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi.

Aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda uy xo'jaliklari ham o'z daromadlari bilan muhim o'rin egallaydi. Amaliyotda uy xo'jaliklarining quyidagi tavsiflaridan foydalaniladi:

- uy xo'jaliklarining pul daromadlari;
- uy xo'jaliklarining pul sarf-harajatlari;
- uy xo'jaliklarining tasarrufidagi moddiy resurslari ko'rsatkichlari.

O'zbekistonda kambag'allik darajasini baholash iqtisodiyotda deyarli qo'llanilmaydi, biroq o'rta hisobda bir oyda pul

daromadlari ko'rsatkichidan foydalaniladigan tarzda hayot kechirish minimumi darajasini belgilaydigan mutlaq konsepsiyaga asoslanadi. Hayot kechirish minimumi inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'molining minimal darajasi ko'rsatkichidir.

Hayot kechirish minimumi o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qiymat tarzida va umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, subyektlardagi asosiy ijtimoiy demografik guruhlar bo'yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va tumanlar bo'yicha belgilanishi mumkin. Hayot kechirish qiymatini belgilash negizini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari o'lchamlari tashkil etadi, ular aholi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy guruhlari uchun minimal iste'mol me'yorlari bo'yicha tabaqalashtirib berilgan hamda iste'mol qilinadigan moddalarning kaloriyaliligi va kimyoviy tarkibi bo'yicha muvozanatlashtirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol me'yorlarini asoslashda turli tabiiy iqlimiy sharoitlarni hisobga olish maqsadida respublika hududi amaldagi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonaga ajratilgan. Zonalar bo'yicha taqsimotga ko'ra yiliga o'rta hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat turlari ma'lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan.

"Hududiy zonalar bo'yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga taxminan 2204 kkal.dan 2607 kkal. gachani tashkil etadi. Hayot kechirish minimumi budjetida iste'mol me'yorlari faqat oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan bo'lib, unda tovarlar va barcha turdagi xizmatlar qiymati 30-35 %ni tashkil etadi" [9].

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda eng salbiy ko'rsatkichlardan biri – mutlaq qashshoqlikdir. Mutlaq qashshoqlik deganda daromadlarning umuman yoki shaxsning minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligi tushuniladi.

Aholi farovonligi darajasini shuningdek quyidagi to'rt ko'rsatkich bilan ajratish mumkin:

1. Aholi farovonligining to'liqligi – insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydigan ne'matlardan foydalanish;
2. Aholi farovonligining me'yoriy darajasi – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydigan ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oilona iste'mol qilish;
3. Kambag'allik - mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;
4. Qashshoqlik – iste'mol qilinishi insonning hayot kechirish qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beradigan ne'matlar va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'l qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish [10].

Aholi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri umr ko'rish davridir. Shu bilan bir qatorda

aholining ma'lumot darajasi, kasbiy darajasi yuqoriligi, iqtisodiy faolligi, tadbirkorligi, ijtimoiy munosabatlari mamlakatda aholi farovonligi darajasini yuqori bo'lishini ta'minlovchi sabablar sifatida ta'kidlanadi.

Mamlakat aholisining farovonligi yalpi ichki mahsulotning hajmi va tarkibi bilan ifodalanadi. Ayniqsa shaxsiy iste'mol xarajatlari muhim ahamiyatga ega. Iste'molning umumiy hajmida uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar ulushining yuqoriligi aholi farovonligi darajasi va mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti darajasining yuqoriligidan dalolat beradi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotdan inson rivojlanish indeksi va mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti indeksini hisoblashda foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi barqarorlikka, iqtisodiyotni yuksaltirishning ijobiy sur'atlariga erishish hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy-mehnat munosabatlarining barcha jihatlari aholining turmush tarzi va daromadlariga, aholi qatlamlarida ijtimoiy himoyaga muhtojlar, boylar, kambag'allar va qashshoqlar paydo bo'lishiga bevosita ta'sir qiladi.

Ijtimoiy jihatdan olib qaraganda, davlat insonning munosib turmushi va erkin rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni olib boradi. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri – mehnat va tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining iqtisodiy farovonligini ta'minlash, omonatlarni shakllantirishni va ularni samarali investitsiyalashni ta'minlashga imkoniyatlar yaratish asosida aholining turmush darajasi va sifatini oshirishdir. Mehnat faoliyati va uning natijalari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-mehnat munosabatlari ish haqi va daromadlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mehnat munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy sherikchilik yangi shakllarining yuzaga kelishiga, ijtimoiy himoyalanganlikning rivojlanishiga, mehnat faoliyatidan qoniqishning oshishiga olib keladi. Bozor munosabatlarining chuqurlashishi bosqichida aholining turmush darajasi va daromadlarning tabaqalanishi markaziy muammo bo'lib qoladi. Ularning hal qilinishiga ko'p jihatdan keyingi tub o'zgarishlar yo'nalishi va sur'atlari hamda oqibat natijada jamiyatdagi siyosiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, bu muammolarning hal qilinishi daromadlarning aniq ishlab chiqilgan siyosatini talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aholining moddiy farovonligi, sog'lig'i va xavfsizligini saqlashning yuksak darajasiga erishish, ularni amalga oshirish borasida kafolatlarni yuzaga keltirish uchun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar yaratish bugungi kunda davlat ijtimoiy

siyosatining asosiy yo'nalishidir. Bu yo'nalish har bir insonning munosib turmushi va erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan tegishli ijtimoiy-iqtisodiy siyosat o'tkazish bilan amalga oshiriladi.

Aholining turmush tarzi bilan bog'liq muammolarni hal qilishga bo'lgan yangicha yondashuvlar korxonadagi (tashkilot, firma, kompaniya) mehnat munosabatlari, mehnatga haq to'lashni tartibga solish, xodimlar xizmatlarini baholash, ish haqini va umuman ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish kambag'allik deb atalmish tushunchaning kamaytirilishiga bevosita ta'sir qiladi. Daromadlar siyosatining nazariy masalalarini, ularning turli darajalarda va aholining turli guruhlari uchun shakllanish usullari va mexanizmlarini bilish bilan ham aholining kam daromadli qismini kamaytirishga ta'sir etishi belgilangan.

Kambag'allik, qashshoqlik kabi tushunchalarning nazariy jihatdan o'rganilishi eng avvalo aholi qatlamining qay darajada yashashi, iste'mol qilayotgan noz-ne'matlari bilan, umuman olganda turmush darajasi bilan belgilanar ekan, biz ushbu birinchi bobda aholining turmush darajasi haqida ham o'rganmoqni joiz topdik.

Aholining turmush darajasi insonlar hayoti va faoliyatining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari majmui bilan tavsiflanuvchi murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Aholining turmush darajasini tadqiq etish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlar uchun, xususan, mamlakatlararo taqqoslash uchun dolzarbdir.

Aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'rganishning eng muhim jihatlari quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi hisoblangan insonning asosiy sifat xususiyatlarini baholash (yuksak darajada davom etishiga erishish uchun sog'lom turmush tarzini olib borishga qobiliyat; ta'lim olish imkoniyatlari, munosib turmush uchun yetarli mablag'larga ega bo'lish va yuksak kasbiy sifatlarini egallash);

- nominal va real daromadlarni baholash;

- aholining uy-joy, uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan iste'mol ne'matlari bilan ta'minlanish xususiyatini o'rganish. Aholining turmush darajasi – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yori tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.

Boshqacha qilib aytganda, turmush darajasi jamiyatda yashovchi inson ehtiyojlarining rivojlanishi va qondirilishi darajasidan iborat bo'lib, u turli ne'matlarning iste'mol qilinishi yoki iste'mol uchun olinganlarining foydalilik darajasi bilan belgilanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. **Samiyeva Gulnoza Toxirovna – QarDTU “Innovation iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD) / Самиева Гульноза Тахировна – доцент кафедры «Инновационная экономика» Кырджалийского государственного технического университета, доктор философии по экономике. (доктор философии) / Samiyeva Gulnoza Takhirovna – Associate Professor of the Department of Innovative Economics of the Kyrdzhali State Technical University, Doctor of Philosophy in Economics. (Doctor of Philosophy)**

► samiyevagulnoza@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-3192-3887>

2. **Abdiyeva Dilshoda Oybek qizi – QarDTU “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo’yicha) ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi / Абдиева Дилшода Ойбек кызы – студентка 1 курса образовательной программы «Экономика» (по отраслям и направлениям) КарГТУ / Abdieva Dilshoda Oybek kizi – 1st year student of the educational program "Economics" (by industries and directions) of KarSTU**

► abdiyevadilshoda234@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0001-7615-0158>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28.01dagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston strategiyasi”

- [2] O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi, 2017
- [3] Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T. 2020 yil 24 dekabr
- [4] Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov. Aholi turmush tarzi va daromadlari, - Toshkent - 2011
- [5] Джуманова Р.Ф. Аҳоли турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари. Диссертация. Тошкент 2008 йил
- [6] Мухитдинова М.З. “Аҳоли турмуш даражасини баҳолаш: таҳлил ва самара” - Халқаро молия ва ҳисоб илмий электрон журнали. № 2, апрель, 2019 йил
- [7] Пардаева Б. “Состав доходов и социальная защита населения”. 19 -е Международное Плехановские чтения. М.:2006
- [8] Жеребин В.М., Романов А.Н. Уровень жизни населения: основные категории, характеристики и методы оценки. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009.
- [9] 2020 yil 24 dekabrda Sanitariya-epidemiologik o'soyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining “O'zbekiston Respublikasi aholisining yoshiga, jinsiga va kasbiy faoliyati guruhlar uchun sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan o'rtacha kunlik ratsional ovqatlanish normativlari”
- [10] И.М. Алиев, Н.А. Горелов. Политика доходов и заработной платы. Учебник. – Ростов н/Д: Феникс, 2008